

Joriy yilning 21-oktabr kuni "O'zkimyosanoat" Ajda jamiyat Komplayens xizmatining III chorak yakunlari yuzasidan hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi

// 21 October 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/komplayens-xizmatining-uchinchi-chorak-yakunlari-yuzasidan-hisobot-yigilishi>



Joriy yilning 21-oktabr kuni "O'zkimyosanoat" Ajda Jamiyat Komplayens xizmatining III chorak yakunlari yuzasidan hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati, departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari, shu bilan birga Jamiyat tizim korxonalarini rahbarlari va mas'ul xodimlar ishtirok etishdi.

Xabaringiz bor, "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsion omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamlil islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida Komplayens nazorat tizimi "Navoiyazot" AJ, "Farg'onazot" AJ, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ, "Maxam-Chirchiq" AJ, "Ammofos-Maxam" AJ,

"O'zkimyosanoatloyiha" AJ, "Birinchi rezinotexnika zavodi" MChJ, "Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ, "O'zkimyoimpeks" MChJ va "Qo'ng'irotd soda zavodi" MChJ QKlarida o'z faoliyatini yuritmoqda.

Shuningdek, barcha tarmoq korxonalarida "Korrupsiyaga qarshi siyosat", "Xizmat odobi kodeksi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" kabi 10 dan ortiq ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va o'rnatilgan tartibda barcha xodimlarga tanishtirish va tushuntirish ishlari amalga oshirilmogda.

Hisobot davrida kimyo sanoati korxonalarida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash, o'g'rilik, talon-taroj qilish, korxonaga va davlat mulklarini o'zlashtirish va ta'magirlik holatlariga chek qo'yish maqsadida jami **15 ta** xizmat surishtiruvini o'tkazildi, natijalari bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlandi va aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

Natijada **5 nafar xodim** jinoiy javobgarlikka tortildi, **8 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi, **36 nafar** mas'ul xodimlarga nisbatan turli xildagi intizomiy jazolar (hayfsan, ogohlantirish va h.k) qo'llanildi, **22 nafar** xodimning ish haqidagi jarima undirildi, **9 ta** holat bo'yicha to'plangan materiallar qonuniy chora ko'rish uchun huquq tartibot organlariga yuborildi.

Shuningdek, joriy yilning 3-choragi davomida kimyo sanoati korxonalarida tizimda aniqlangan korrupsion harakatlar, korxonaga mablag'larining talon-taroj qilinishi oqibatida jami bo'lib **1,2 mlrd.so'mlik** tovar moddiy boyliklari kamomadi aniqlangan. (2021-yilning 3- choragida yilligida tovar moddiy boyliklari va mineral o'g'itlar kamomadi jami **7,5 mlrd. so'mni** tashkil qilgan.)

Hisobot davrida tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligini ta'minlash hamda ularni "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq o'tkazilishi natijasida, jami bo'lib **3,1 mlrd.so'mlik** pul mablag'larining asossiz sarflanishining oldi olinib, iqtisod qilindi.

"O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablariga muvofiq xizmat vazifasiga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori va o'rta bo'lgan **4047 nafar** xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyalar to'ldirildi.

To'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda joriy yilning o'tgan davri mobaynida **51 ta** mas'ul xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi, **37 ta holatda** esa ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi aniqlandi, 2021-yilning mos davrida faqatgina **12 ta** holat aniqlangan.

O'tgan yilning mos davrida kimyo sanoati korxonalarida **32 ta** profilaktik tadbirlar o'tkazilgan bo'lsa, joriy yilning hisobot davrida **204 ta** seminar va profilaktik tadbirlar o'tkazilgan. Shuningdek, tarmoq korxonalarida xaridlar jarayonida ishtirokchilarning o'zaro til birlashtirishlari, raqobat muhitini cheklashga urinish hamda ball qo'yishda baholash mezonlariga noxolis yondashuvlarni bartaraf etilishi natijasida, jami **29,1 mlrd.so'mlik** shartnomalarning tuzilishi rad etilib, aniqlangan manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yildi.









"ЎЗКИМЁСАНОАТ" АЖ ТИЗИМИДА КОРРУПЦИЯВИЙ ХАВФ-ХАТАРЛАР ЮҚОРИ БЎЛГАН ЙЎНАЛИШЛАР

1



"Ўзкимёсаноат" АЖ тизимидаги мансабдор шахслар томонидан корхона маблағларини талон-тароғ қилиш ҳамда таъмагирлик (товламачилик) ҳолатлари

2




Корхона омиборхоналаридаги товар-моддий бойликларини саклаш соҳасида камомалларга йўл қўйилиши

3



Меҳнат муносабатларида манфаатлар тўқнашувининг мавжудлиги

4



Харидларни ташкил этиш соҳасидаги масъул ходимларнинг контрагентлар билан тил бириктириш ҳолатлари

